



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

¹Egamova Zilola Ayubovna.,

²Pulatova Muhabbat Egamberdiyevna

¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika ta'lim fakulteti 4-bosqich talabasi. E-mail: Zarruhegamov@823gmail.com. Tel: +998997363741

²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Fakultetlararo pedagogika kafedrasida o'qituvchisi (phd). E-mail: @muhabbatpulatova84.mail.ru Tel: +998975750406

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ta'limni amalga oshirish va xalq taraqqiyoti bir-biriga uzviy bog'liqdir. Sifatli ta'lim sifatli bitiruvchilarni yaratadi va sifatli bitiruvchilar inson resurslari sifatida turmush darajasini yaxshilashga ishtirok etish imkonini beradi. Ta'lim sifatining barqarorligi esa o'qituvchining pedagogik malakasiga va kasbiy kompetensiyasining rivojlanganligiga bog'liq. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zida qanday kompetentlik sifatlarini namoyon etishi zarur? Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining kasbiy kompetensiyalarini qanday amalga oshirishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Kompetentlik, kasbiy kompetensiya, zamonaviy texnologiyalar, maxsus kompetensiya, ekstremal, texnologik, o'zini-o'zi tahlil, pedagogik odobi.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-КОМПЕТЕНТНЫХ КАЧЕСТВ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. Осуществление образования и национальное развитие неразрывно связаны между собой. Качественное образование создает качественных выпускников, а качественные выпускники могут способствовать повышению уровня жизни в качестве человеческих ресурсов. Стабильность качества образования зависит от педагогической квалификации учителя и развития профессиональной компетентности. Так что же такое компетентность? Какие качества отражаются в основе профессиональной компетентности? Какие

качества компетентности должен проявлять учитель начальных классов? В данной статье рассматривается, как учителя начальных классов реализуют свои профессиональные компетенции.

Ключевые слова. Компетентность, профессиональная компетентность, современные технологии, специальная компетентность, экстремальность, технологичность, самоанализ, педагогическая этика.

FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCY QUALITIES IN PRIMARY CLASS TEACHERS

Abstract. Implementation of education and national development are inextricably linked. Quality education creates quality graduates and quality graduates as human resources enable them to participate in improving the standard of living. The stability of the quality of education depends on the development of the teacher's pedagogical qualification and professional competence. So what is competence? What qualities are reflected in the basis of professional competence? What qualities of competence should a primary school teacher demonstrate? This article discusses how primary school teachers implement their professional competencies.

Key words. Competence, professional competence, modern technologies, special competence, extreme, technological, self-analysis, pedagogical ethics.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Ta'lim tizimiga boshqaruvining yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida ko'p sonli o'qituvchilar jamoalari oldiga har tomonlama bilimli, dunyoqarashi keng raqobatbardosh, Vatan ravnaqi uchun hormay-tolmay xizmat qila oladigan, buyuk Vatan yo'lida o'z jonini ayamaydigan yoshlarni tarbiyalashdek mas'uliyatli talabni qo'ydi.[1] Bunga erishish uchun o'quvchilarni uzluksiz ta'lim bosqichlarida turli sohalar bo'yicha egallagan bilimlarini kundalik hayotda amaliy qo'llashga o'rgatish orqali ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish kerak bo'ladi. Ushbu talablar avvalo boshlang'ich sinf o'qituvchisida to'la mujassam bo'lishi lozim. Bu o'qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirish vazifasini o'rta qo'yadi. Komponent yondashuv oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqeilik sanaladi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy elementi "bilim-

ko‘nikma-malaka’ni oltita birlik-“bilim-ko‘nikma-malaka-amaliy faoliyat tajribasi-kompetensiya-kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI. N.V.Kuzimina, A.K.Markova, E.F.Zeer, V.A.Slastenin, T.F.Loshkova o‘qituvchining “kasbiy kompetentlik” haqida ko‘plab ishlarni amalga oshirganlar, B.A.Nazarova o‘zining ilmiy ishida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid, K.Yung, P.Sorokin, F.Znanetskiylarning falsafasida kasbiy kompetentlik tushunchasiga shunday ta’rif berganliklarini ta’kidlaydi:“Bu muhitga o‘rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to‘g‘rilaydi, odamning qiziqishlarini jamlaydi”. A.P.Akimova kasbiy kompetentlikni shunday ta’riflaydi:“ O‘z faoliyatida kerak bo‘lgan yangiliklarning, bilimlarning qobiliyatlarning yig‘indisi va atrof-muhit bilan o‘zaro to‘g‘ri kelishi”. A.K.Markova o‘qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatni, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajaga oshirsa, yoshlarni o‘qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa bo‘ladi. Kompetentlik o‘qituvchi o‘zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o‘z mehnatida qo‘llashni bilishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosini o‘rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag‘ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa uzluksiz ta’lim tizimining modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi. R.X.Tugeshev kompetensiya tushunchasini kasbiy mahorat degan tushuncha bilan bir xil ekanligini qayd etsa, E.F.Zeer esa kasbiy kompetensiya va kasbiy qobiliyat oliy darajadagi kasbiy mahoratni ta’minlaydi, degan fikrni olg‘a suradi.[3] Ko‘pchilik olimlar kasbiy kompetensiya tarkibida umumlashgan shaxsiy sifatlarni har qanday oliy ta’lim muassasini tamomlaganlari uchun o‘ta muhim ekanligini qayd etadilar.

“Kompetentlik” (ing.“competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish. “Kompetentlik” tushunchasi pedagogning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma’lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va qo‘llay bilishni taqozo etadi. Hozirgi kunda ta’limda texnologiyalarning rivojlanib borishi sababli bu amallarni qo‘llash yanada osonlashib bormoqda. Shu bois o‘qituvchining kompetentligini oshirish yo‘llari ko‘payib bormoqda. O‘qituvchining zamonaviy texnologiyadan foydalanish bo‘yicha malakasi o‘quvchilarning ta’lim natijalari nuqtai nazaridan yuqori sifatga ega

bo'lishi uchun o'quv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatyapti. O'zbekiston sharoitida ham pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.[4]

ASOSIY QISM.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

– kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayoning boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

– metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

– informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

– kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish ;

– innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tadbiq etish;

– kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayoning barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalanish.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.[5]

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu kompetensiyalarni amalga oshirishda quyidagi xususiyatlarni ham o'zida namoyon qilishi lozim:

1. O'qituvchi dunyoqarashi keng, hamma voqea, hodisa ustida erkin fikr yurita olishi zarur.
2. Mustaqil O'zbekistonimiz o'qituvchisi birinchi galda o'zi o'qitadigan fanni chuqur egallagan bo'lgandagina o'quvchilarda umumiy kasbiy ta'lim sifatini oshira oladi va ularda fan-texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila oladi.
3. O'qituvchi hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har daqiqasidan unumli foydalanishi zarur.
4. O'qituvchi yaxshi kompetentli o'qituvchi bo'lishi uchun pedagogika, psixologiyaga qo'shib, o'z fanining metodikasini yaxshi bilmog'i lozim.
5. O'qituvchining umumiy madaniyati yuqori bo'lishi bilan birga bu kasb adabiyot va san'at sohasidagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.
6. O'qituvchi pedagogik odobiga rioya qilishi kerak. Pedagoglik odobi o'qituvchilik kasbiga xos fazilatlardan bo'lib, u o'qituvchining bolalar bilan ishlashi jarayonida uning tajribasi, mahorati bilan oshadi.
7. O'qituvchi pedagogik kompetentligiga va har tomonlama bilimga ega bo'lishi kerak, chunki unga o'quvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin.
8. Zamon talablaridan kelib chiqib innovatsion g'oyalar bilan qurollangan bo'lishi kerak.

Ayni shu kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun o'qituvchidan doimiy tarzda o'z ustida ishlash, o'zini-o'zi tahlil qilish va rivojlantirish talab etiladi. Bunday qobiliyatlarning shakllanganligi o'qituvchining o'zini-o'zi nazorat qilishida, o'z qadr-qimmatini bilishida va pedagogik individual rivojlanish xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

XULOSA. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligi – bu o'qituvchining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrxohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, va h.k) fazilatlarni belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, o'quvchi yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini, innovatsion usullarni izlab topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga bir umrga yetadigan bilim emas, balki bir umr bilim olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi kerak. Bu jarayonda esa o'qituvchida kasbiy kompetentlikning shakllanganligi ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni
2. R.Mavlonov, D.Abdurahimova “Pedagogik mahorat”- o‘quv qo‘llanma, Toshkent:2009
3. Azizxo‘jayeva N.N “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” – Toshkent:2002
4. M.M.Axmetjanov, SH.SH.Olimov, S.S.Avezov “Pedagogik mahorat” – Toshkent:2018
5. D.Elmuratova, N.Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” – o‘quv qo‘llanma, Guliston:2021